

MARKAZIY OSIYODA FUTUVVAT



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15656608>

Usmonov Ibrohim Sabirovich,
i.usmanov@yahoo.com, 0009-0003-3083-3791,
O'zRFASHI, t.f.n., dots., Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

Ushbu maqolada quyidagi mavzular muhokama qilingan:

1. Ilk o'rta asr Movarounnahr adabiyotlarida futuvvat g'oyalari.
2. **Markaziy Osiyoda yaratilgan turkiy adabiyotlarda futuvvat.**
3. Ibn Battutaning "Safarnoma" asarida Markaziy Osiyo yurtlarida futuvvatga doir xususiyatlarning namoyon bo'lishi.
4. Amir Temur va Temuriylarning futuvvat tashkilotlariga munosabati.
5. Temuriylar davri adabiyotida futuvvat. Alisher Navoiy asarlarida Axiy obrazi. Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnoma" asari.
6. Buxoro oluftarlari – mahalliy fatiylar.
7. O'zbek urf-odatlarida javonmardlik namunalari.

Kalit so'zlar: futuvvat, javonmard, Yusuf Xos Hojib, olufta, "Qutadg'u bilik", "Hibatul haqiq", "Futuvvatnomai Sultoniy".

Abstact

This article discusses the following topics:

1. Futuvva (chivalry) ideas in early medieval Transoxiana literature.
2. Futuvva in Turkic literature created in Central Asia.
3. Manifestations of futuvvat-related characteristics in the lands of Central Asia as reflected in Ibn Battuta's *Travelogue*.
4. The attitude of Amir Timur and the Timurids toward futuvvat organizations.
5. Futuvva in the literature of the Timurid era: the image of Akhi in the works of Alisher Navai; *Futuvvatnama* by Husayn Va'iz Kashifi.
6. The *oluftas* of Bukhara – local fityans (youths of virtue).
7. Examples of **javonmardlik** (manly virtue) in Uzbek customs and traditions.

Keywords: futuvvat, javonmard, Yusuf Khass Hajib, olufta, *Qutadghu Bilig*, *Hibat al-Haqa'iq*, *Futuvvatnama-yi Sultani*.

Kirish

1. Ilk o'rta asr Movarounnahr adabiyotlarida futuvvat g'oyalari.

Futuvvat ahlini Movarounnahr diyorlarida "javonmardlar" (fors. yosh yigit) deb ataganlar.

Javonmardlik X asrda Movarounnahrda keng tarqalgan va bir mazmunda tasavvufning yuksak axloqiy normalar haqidagi nazariy jihatining amaliy tatbiqi bo'lgan deyish mumkin.

Garchi ilk o'rta asr Movarounnahr adabiyotlarida "futuvva" yoki "javonmardlik" degan terminlar uchramasada, ularga xos bo'lgan sifatlar ko'proq

tasavvufiy asarlarda uchrab turadi. Jumladan, Hakim Termiziy (vaf. 932 y.), Abu Bakr Kalabodiy (vaf. 990 y.), Mustamliy Buxoriy (XI asr) va boshqa olimlar o'z asarlarida javonmardlik axloqlarini tarannum qilganlar.

Hakim Termiziy (vaf. 932 y.) o'z uslubiga ko'ra, futuvvatga oid xulqlarni o'z asarlarida muolaja qilgan. Ayrim tadqiqotchilar tomonidan Ayo Sofiyadagi № 2049 raqamli qo'lyozmalar majmuasida to'plangan 10ga yaqin futuvvatnoma asarlardan biri Hakim Termiziyga nisbat beriladi. Jumladan, misrlik olim Muhammad Juyushiy Ayo Sofiyada Hakim Termiziyga mansub "ar-Risala fil Futuvva" asarining yagona nusxasi saqlanishini hamda bu asar futuvvatga doir ilk asarlardan ekanini qayd etadi [10, 96-b.]. Tasavvufga oid mo'tabar manbalarda Hakim Termiziyning futuvvat haqida aytan gaplari keltiriladi. Jumladan, "ar-Risala al-Qushayriya" asarining "Futuvvat" bobida Hakim Termiziydan rivoyat qilinadi: Muhammad ibn Ali Termiziy dedi: "Futuvvat bu – Robbing uchun nafsingga dushman bo'lmog'ingdir". Muhammad ibn Ali Termiziy dedi: "Futuvvat bu sening nazdingda muqim odam va to'satdan kelib qolgan mehmonni bir xil ko'rishingdir" [2, 390-391-b.]. Hakim Termiziy "Navodir al-usul" asarining "Arablarning fazilati"ga bag'ishlangan 67-bobida Ibrohim alayhis-salomdan Ismoil alayhis-salom eng yaxshi fazilatlarini o'zlashtirib olganini aytadi: saxovat, kengbag'irlik, shijoat, ulfatchilik. Arablar orqali bu fazilatlar ummatga meros bo'lib qoldi. Hakim Termiziy futuvvatga xos bo'lgan xislatlarni Rasululloh alayhis-salomning hayotlari misolida tasvirlaydi: "Xaybar fath etilganda o'ljalar faqatgina makkalik muhojirlargagina taqsimlandi. Zero, muhojirlar Madinaga mol-mulksiz ko'chib kelgan edilar, ansorlar ularga uy-joylarini berdilar, ozuqalarini baham ko'rdilar va hattoki ansorlardan biri o'z ayolini muhojirga nikohlab ham bermoqchi bo'ldi [7, 444-431-b.]. Alloh taolo ansorlarni madh etdi:

يُحِبُّونَ مَنْ هَاجَرَ إِلَيْهِمْ وَلَا يَجِدُونَ فِي صُدُورِهِمْ حَاجَةً مِمَّا أُوتُوا

(Ansorlar) o'zlari (yonlari)ga hijrat qilib kelgan kishilarni suygaylar va dillarida ularga berilgan narsa (o'ljalar) sababli hasad sezmaslar (Hashr, 9).

Ya'ni muhojirlarga berilib, ansorlar mahrum bo'lgan narsaga qalblarida tanglik, baxillik, raqobat his etmaydilar.

وَيُؤْتُونَ عَلَىٰ أَنفُسِهِمْ وَلَوْ كَانَ بِهِمْ خَصَاصَةٌ

hamda o'zlarida ehtiyoj bo'la turib, (ehson qilishda boshqa muhtojlarni) ixtiyor qilurlar (Hashr, 9).

Ya'ni, ansorlarning o'zlarida ham faqrlik va o'ljaga ehtiyoj bor edi, ammo ular o'zlaridan muhojirlarni iysor qildilar (afzal bildilar)" [7, 463-463-b].

Yana Termiziy yozadi: "Bizga yetib kelgan xabarlariga ko'ra, Kinona¹ bir o'zi taom yeyishni yoqtirmaganidan, agar taomlanishga sherik topa olmasa, ro'parasiga tosh qo'yib, bir luqmani o'zi yesa, yana bir luqmani unga qo'yar ekan. Payg'ambar alayhis-salomning bobolari Abdulmuttolibning dasturxonini doim tuzalgan turar, undan hattoki tog'lardagi hayvonlar va qushlarga ham yegulik ulashilar edi" [7, 470-b.]. Shundan so'ng Hakim Termiziy bu sifat va xulqlar ajamlarda bo'lsa ham, ammo fazilat arablarda ekanini aytib o'tadi.

¹ Arablar shajarasiidagi ulug' ajdodlardan biri.

“Navodir al-usul”ning “Eng go‘zal xulqlar” nomli 190-bobida Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamdan quyidagi hadisni keltiradi: “Makorimul axloq – eng yaxshi xulqlar o‘ntadir. U otada bo‘ladi o‘g‘lida bo‘lmaydi, o‘g‘ilda bo‘ladi otasida bo‘lmaydi, qulda bo‘ladi xojasida bo‘lmaydi. Alloh taolo bu xulqlarni baxt-saodatli bo‘lishini iroda qilgan bandasiga beradi. Ular: rostgo‘ylik, qiyinchilikda ham sodiq bo‘lish, muhtojlarga ehson qilish, berilgan hadya evaziga hadya qaytarish, omonatdorlik, qarindoshlik rishtalarini bog‘lash, qo‘shni haqiga rioya qilish, do‘st haqiga rioyat etish, mehmondo‘st bo‘lish, bularning boshida hayoli bo‘lish turadi”, dedilar.

Termiziy bu bobda mashhur Hotam Toiyning asirga tushib qolgan qizining Rasulullohga murojaatini keltiradi: “Ey Muhammad (s.a.v.) agar “xo‘p” desangiz, arablarga meni kulgu qilmay, o‘z yo‘limga jo‘natib yuborsangiz. Chunki, men qavm boshlig‘ining qiziman. Otam qiynalganlarga yordam berar, bechoralarni himoyasiga olar edi, mehmondo‘st bo‘lib, ochlarni to‘ydirar, musiybatzadalarga ko‘mak berar, miskinlarga taom ulashar, o‘zaro salom berishni kanda qilmas va hech bir yordam so‘rab kelgan hojatmand kishining qo‘lini quruq qaytarmas edi. Men mana shu sifatlarga ega bo‘lgan Hotam Toiyning qiziman. Shunda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: – Ey qizgina! Bu haqiqiy mo‘minning sifatlaridir. Otang musulmon bo‘lganida edi, biz unga rahmat so‘ragan bo‘lar edik. Uni qo‘yib yuboringlar” [7, 112-b]. Ya‘niki, Xotam Toy garchi musulmon bo‘lmasada, unda topilgan oliyanob xulqlar tufayli Rasululloh alayhis-salom u haqda yaxshi fikr bildirdilar, hattoki qizini ozod qildilar. Shuning uchun ham tadqiqotchilar johiliyat davridagi futuvvatning go‘zal namunalariga ham e‘tibor qaratadilar [6, 51-73-b.].

Hakim Termiziy asarlarida malomatiylarga berilgan tavsiyalar ham muhim ahamiyatga ega. Ma‘lumki, Xuroson va Movarounnahr hududida katta ta‘sir doirasiga ega bo‘lgan malomatiylik harakati va futuvvat g‘oyalari o‘zaro uyg‘unligi asarlarda qayd etilgan. Xususan, futuvvatga doir maxsus “Kitab al-futuvva” asarini yozgan Sulamiyning malomatiylarga bag‘ishlangan “ar-Risala al-malomatiyada” bu holat yaqqol ko‘rinadi. Shuni e‘tirof etish kerakki, malomatiylarning aksar g‘oyalari futuvvat ta‘limotlari namuna bo‘lib xizmat qilgan. Hattoki aytish mumkinki, futuvvat tashkilotlarining malomatiylar bilan aloqalari avvalida sufiylardan ko‘ra kuchliroq bo‘lgan. Sulamiy ham malomatiylarni xos sifatlar bilan tavsiflaganda aynan fatiylarga xos sifatlar bilan madh etgan. Malomatiyaning ilk asoschilari ham uni futuvvatning bir ko‘rinishi sifatida tasavvur qilganlar va o‘zlariga “fityan” ismini qo‘llaganlar [1, 30-31-b.]. Tarix kitoblarida malomatiylar rahbarlari va Hakim Termiziy o‘rtasidagi yozishmalar saqlanib qolgan. Malomatiylarning savollariga Hakim Termiziy o‘z uslubiga ko‘ra javoblar yo‘llagan. Ularning ta‘limotidagi nafsni isloh qilish borasidagi kamchilik va nuqsonlarini ochib, ularni isloh etish yo‘llarini ham ko‘rsatib bergan [21].

Buxorolik mashhur olim Abu Bakr Muhammad Kalobodiyning “Ta‘arruf” asarida futuvvatning muhim tamoyillaridan biri bo‘lgan “iysor” – “boshqani o‘zidan afzal ko‘rish”ga alohida o‘rin beriladi. Jumladan, Kalobodiy mazkur

asarning “Tasavvuf o‘zi nima” degan 32-bobida tasavvufning arkonlari 10ta ekanini qayd etib, shulardan 4-si “iysorul iysor” ekanini zikr qiladi. So‘ngra “iysorul iysor” nima ekanini sharhlaydi: “iysor bilan o‘z nafsiga boshqani afzal ko‘rsatish, toki bu iysorning fazli boshqada bo‘lsin” [11, 61-b.].

Ushbu davr adabiyotida futuvvat mazmun jihatdan mavjud bo‘lgan, uning axloqiy tamoyillari namoyon bo‘lgan, diniy asoslari ko‘rsatib berilgan.

IX asrdan boshlab futuvvat va javonmardlik xulqlari diniy adabiyot doirasidan chetga chiqa boshlandi. Markaziy Osiyoda futuvvat g‘oyalari futuvvatnoma, pandnomalar bilan bir qatorda xalq hikoyalari va dostonlarida ham tarannum etildi: Guro‘g‘li, Alpomish, Manas va boshqa.

Futuvvat bo‘yicha eng qadimgi manbalardan biri Unsurmaoliy Kaykovus ibn Iskandar (XI asr) tomonidan yozilgan “Qobusnoma”dir. Ushbu kitob garchi Movarounnahr hududida ta‘lif etilmagan bo‘lsada, undagi pand-nasihatlari mintaqaholisi tomonidan doim sevib o‘qib kelingan, tarbiya jarayonlariga jalb etilgan, hatto 1860 yili Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan o‘zbek tiliga ham tarjima qilingan. Ushbu kitobning eng so‘nggi bobida javonmardlik haqida gap boradi. Muallif bu bilan go‘yoki barcha ezgu xislatlar va go‘zal xulqlar qayd etib o‘tilgandan keyin ushbu xulqlarning eng sarasini oxirida zikr etadi. “Qobusnoma”ning tushunchalaridan kelib chiqib, o‘sha vaqtlarda ilk futuvvat ta‘limoti jamiyatning turli xil sohalarida axloqiy amaliyot sifatida keng tarqalgan. Aynan hunarmandlar va savdogarlar javonmard kishi xatti-harakatlarining alohida qoidalarini ishlab chiqishgan.

Javonmardlar oddiy xalq ichidan chiqqan hunarmandlar, sipohiyalar, pahlavonlar, savdogarlar va boshqa toifalardan tashkil topganlar. Ularning har birining piri, o‘z jamoasi, yig‘iladigan joylari bo‘lgan. Pirga qo‘l berib, mardlik belbog‘ini bog‘lagan javonmard, o‘z ahdiga sodiq bo‘lgan. Javonmardlik uyushmalarida a‘zolar aka-uka, birodar kabi bo‘lib, bir-biri uchun moli va jonini fido qilishga tayyor turganlar [12, 114-b.].

Natijalar

2. Markaziy Osiyoda yaratilgan turkiy adabiyotlarda futuvvat.

Markaziy Osiyoda yaratilgan turkiy adabiyotlar – “Qutadg‘u bilik”, “Hibatul haqiq” (yoki “Atabatul haqiq”), “Devonu lug‘otit turk” asarlarida aynan futuvvat yoki javonmardlik so‘zlari qo‘llanmasada, javonmardlikka doir mavzular muhokama qilingan. Shu bilan birga ushbu 3 manbada “aqi” so‘zi va uning hosilalari (aqilik, aqilar) orqali javonmardlik-futuvvat-axiylikka oid tushunchalar ifoda etilgan. “Qutadg‘u bilig”da ushbu so‘z “aqi”, “aqi bo‘l”, “aqilik” ko‘rinishida 61 o‘rinda keltirilgan; “Atabatul haqiq”da “aqi bo‘l”, “aqi er”, “aqilik” ko‘rinishida 14 o‘rinda keladi [18, 1-23-b]. “Devonu lug‘otit turk”da esa “aqi” so‘zi quyidagicha izohlanadi: “*aqi – qo‘li ochiq, saxiy*” [20, 116-b]. Aqidan yasalgan “*aqiladi*” – *saxiy hisobladi*. “*Ol meni aqiladi*” – *u meni saxiy deb hisobladi*. *Aqilar, aqilamaq* [20, 302-b]. *Qozg‘il menga aqiliq bo‘lsun manga oyog‘o, Izg‘il mani to‘qishg‘a, yuvgil manga ulag‘a.* (tarj. Meni o‘z holimga qo‘y,

to'sqinlik qilma, toki birovlariga foyda beruvchi saxiylik nomi menga qolsin. Meni jangga eltuvchi ot ber. U meni jangga eltsin) [20, 187-b.].

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, aynan "Aqi" so'zi keyinchalik "Axi"ga aylanib, arabiy talaffuzga yaqin bo'lgan, deb "axiylik" atamasining kelib chiqishini turkiy asosga bog'laydilar. Mag'riblik mashhur sayyoh Ibn Battuta esa XIV asrda Kichik Osiyoga qilgan safari davomida uchratgan bu so'zni arabiy asosga ega, deb tushungan holda kitobida shunday ta'riflagan: "Axiyya" (axiylik) ning birligi "axiy" bo'lib, (arabcha) al-ax lafzidadir, unga birinchi shaxs egalik olmoshi qo'shilgan ko'rinishidir" [9, 257-b.].

Buyuk shoir Alisher Navoiy (1441-1501) ham o'z asarlarida "axiy" so'zidan foydalangan:

Birta o'tmakni ikki bo'lub, yarmin bir ochg'a berganni saxiy de,

O'zi yemay barin muhtojga berganni axiy de (Mahbubul qulub, Tanbeh 11, Saxovat va himmat bobida).

Alisher Navoiyda "axiy" so'zi bu o'rinda "Devonu lug'otit turk"da keltirilgan mazmunidan ham oliyroq mazmuni kasb etgan. Iysorning eng yuqori ko'rinishini "axiy" deb ataydi.

Alisher Navoiy "Nazmul javohir" asarida hazrat Alining jamlangan hikmatlaridan 139-hikmatni sharhlashda "axiy" so'zini qo'llaydi:

Dolla man bo' ad-dina bid-dunyo (Dinni dunyoga almashtirganlar adashdilar)

Dunyo sorikim mayl o'qin otti, axiy,

Aning vahlig'a belicha botti, axiy,

Gumroh ulus ichra o'zin qotti, axiy,

Dunyog'a birovki dunyoni sotti, axiy.

XI asrda Mahmud Koshg'ariy tomonidan yaratilib, eng qadimiy hisoblanadigan turkiy badiiy adabiyot namunasi bo'lmish "Qutadg'u Bilig"da ham javonmardlikka xos bo'lgan sifatlar madh etilgan [19]:

<p>Himmat haqida: Kerak erka himmat, muruvvat yangi Yafuz, yunchug' andin yirasa o'ngi. Kishilikka himmat, muruvvat kerak. Kishi qadri himmat, muruvvat tengi.</p>	<p>Zamonaviy o'zbek tilida: Jami erga himmat, muruvvat zarur Yovuzni yo'q etmakka quvvat zarur, Kishilikka himmat, muruvvat kerak, Qadrliga himmat muruvvat zarur.</p>
<p>Sabr-qanoat haqida: Shakarlig yeding san uzun na'mati, Qo'vuq, tuz yedim man, o'zum taqati. Ekigu to'dub teng kecha yattimiz. Kechib bardi, kelmish kunum saati.</p>	<p>Shakar-la yeding sen jahon ne'mati, Kepak non yedim men, tutib toqatin. Ikkovlon to'yib teng kecha yotdigu, Kecha o'tdi, ko'r, keldi kun-soati.</p>
<p>To'g'riso'zlik haqida: So'zi chin kerak beg, qiyiqsiz, ko'ni So'zindan yanig'lig', tema er ani. Tilin so'zlamish so'zda yanmas eran,</p>	<p>So'zi chin bo'lishi kerak beg kishi, Berib va'da tonmoq, emas er ishi. Kishi mardi tonmas degan so'zidan,</p>

So‘zidan yanig‘li isharlar eshi.	So‘zidan tonuvchi zaiflar ishi
Adolat va tavoze‘ haqida: Aya beg, qatig‘lan bu taqat tengi, To‘ru qil budunqa, tegurgil o‘ngi. Qali tushsa taqsir yana uzri qul, Tilin tegmada, tavba qilg‘il yangi.	Tetik bo‘lgin, ey beg va qilgin toqat, Adolatli bo‘l, xalqqa qil marhamat. Xato tushsa darhol so‘r uzrini, Tilingdan bu tavbani qo‘yma faqat.

XII asrda yashab o‘tgan movarounnahrlilik Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoiq” yoki “Atabatul haqoiq” nomli pandnoma asarida ham aynan “javonmard” so‘zi ishlatilmasada, ammo fatiylarga xos sifatlarini kasb etish haqida so‘z boradi, javonmardlik mazmuni singdirib boriladi. Asarda tavozu‘, saxovat, karamlik, hilm, bilimdonlik, ahdga vafodorlik, adolat, to‘g‘riso‘zlik, sabr, rahm shafqat, do‘stlik, mehribonlik xulq va sifatlarini kasb etishga targ‘ib qilinib, xasislik, kibr, ochko‘zlik, yolg‘onchilik, nodonlik, sergaplik, zulmkorlikdan qaytariladi [22].

Jumladan saxiylik (*Akılık*) haqida shunday yozadi:

Aya dost bililgilig izin izlegil²
Qali sözleseng söz bilib sözleil
Akı erni öggil öger erse sen
Bahılqa qatıg ya oqun kezlegil

Ey do‘st, bilimli kishi izidan bor, agar so‘zlasang, o‘ylab, bilib so‘zlagin.
Maqtasang saxiy kishini maqtagin, baxil kishiga qattiq o‘q yoyini saqlab
qo‘ygın.

Qamuğ til akı er senasın ayur
Akılık kamuğ ayb kirini yuyur
Hammaning tili saxovatli kishining madhini qiladi, saxiylik kishilarning
barcha kamchiliklarini yuvib ketadi.

Akı bol sala söz sökünç kelmesün
Sökünç kelgü yolını akılık tıyur
Saxiy bo‘l, senga la‘nat kelmasin, la‘nat yo‘lini saxovat berkitadi

Akı er biligni yete bildi kör
Anın sattı malın ena‘ aldı kör
Saxiy kishi bilimning qadriga yeta bilganini, shuning uchun butun molini
sotib maqtov, olqish olganini ko‘r.

Bu budun talusi akı er turur
Akılık şereğ cah cermal arturur

²“Atabatul haqoiq”ning asl matni quyidagi manba asosida berildi: Arat, Reşid (2006) *Edip Ahmet B. Mahmud Yükneki, Atebetu‘l Hakayik*. Ankara: Türk Dil Kurumu.

Xalqning yetugi saxiy kishidir, saxiylik sharaf, martaba va kamolotingni orttiradi [13, 421-b.].

3. Ibn Battutaning “Safarnoma” asarida Markaziy Osiyo yurtlarida futuvvatga doir xususiyatlarning namoyon bo‘lishi.

Mo‘g‘ullar istilosi davrida O‘rta Osiyo xalqlarining javonmardligi mag‘riblik mashhur sayyoh Ibn Battutaning ushbu mintaqaga qilgan sayohati asosida yozilgan “Sayohatnoma” asarida “tirik” namoyon bo‘ladi. Ushbu sayohat O‘rta Osiyo xalqlari hayotidagi eng murakkab va og‘ir vaqtlarga – mo‘g‘ullar istilosi davriga to‘g‘ri keladi. Arab sayyohi bu yerlarga mo‘g‘ullar bosqinidan yuz yilcha keyin kelgan bo‘lsa ham, bir zamonlar yashnab yotgan ellarning og‘ir yaralari batamom tuzalganicha yo‘q, shahar vayronalari har qadamda bilinib turishi “Sayohatnoma”da aniq ifodalangan edi. Shu bilan birga XIV asrning 30-yillariga kelib, O‘rta Osiyo xalqlari vaxshiyona istilo oqibatlarini birqadar yengib o‘tib, sobiq savdo va madaniyat markazlarini qayta tiklashga ulgurgan edilar. Ibn Battuta Markaziy Osiyoga kelganda hudud uch mo‘g‘ul davlatiga bo‘lingan edi: Oltin O‘rda, Hulagular davlati, Chig‘atoy ulusi. Ibn Battuta O‘rta Osiyoda Sulton Tarmashirin hukmronligi davrida yetib keladi [8, 5-8-b]. Tarmashirin hukmronligi davrida mo‘g‘ul hukmdorlari islom dinini rasmiy din deb e‘lon qilgan edilar. Tarmashirin ham “Sayohatnoma”da tasvirlangandek juda xudojo‘y mo‘g‘ul hukmdori bo‘lgan. Ibn Battutaning O‘rta Osiyoga sayohati qaydlarini o‘qisak, u yerda xalq ongiga singib ketgan javonmardlik namunalari topamiz.

1333 yilda Ibn Battuta Markaziy Osiyoning Xorazm (uch hafta turadi), Buxoro, Naxshab, Samarqand, Termiz, Hirot shaharlariga boradi. U yerdagi tarixiy sharoitni tasvirlash barobarida ijtimoiy munosabatlarni ham tasvirlab o‘tadi. Jumladan, sayyoh Xorazmga borganda shahar tashqarisidagi Najmiddin Kubro maqbarasi huzuridagi zoviyani ko‘radi. U yerda barcha kelib ketuvchi musofir va ziyoratchilar uchun bepul taom hozirlanganini qayd etadi. Shuningdek, Ibn Battuta Xorazm amirining ayoli barpo etgan yana bir zoviyani zikr qilib, unda ham barcha kelib ketuvchi musofir va ziyoratchilar uchun bepul taom ulashinishini qayd etadi. Ushbu zoviyada mehmon sharafiga shaharning faqihlari va obro‘li shaxslari taklif qilinib, amirning ayoli To‘rabeka ziyofat beradi. Ibn Battuta ushbu ayolni “eng afzal, eng solih va eng saxiy ayol” deb tavsiflab, unga qimmatbaho po‘stin va yaxshi ot taqdim etganini qayd qiladi. Shu bilan birga ziyofatdan chiqib ketayotgan Ibn Battuta yo‘lda uchragan uniqqan kiyimdagi To‘rabekani xodimalari bilan ko‘radi, To‘rabeka unga salom ham beradi, ammo amirning saxovatli ayoli bunday kamtarin libosda bo‘lishi mumkinligini tasavvur ham qilmay, unga e‘tibor qilmay o‘tib ketadi. Ibn Battutaga holatni tushuntirishganda, o‘z qilgan ishidan pushaymon bo‘ladi va To‘rabekaga uzrini aytirib yuboradi [9, 332-335-b.].

Ibn Battuta Xorazmdan Naxshab (Qarshi)ga yo‘lga chiqib to‘rt kundan keyin Qiyot shahrida to‘xtab o‘tdi. U yerda ham unga ko‘rsatilgan mehmondo‘stlikni tavsiflab o‘tadi. Shahar qozisi o‘z talablari hamda taqvodor shayx Mahmud Xivaqiy bilan mehmonning kelganini eshitib, u tushgan joyga keladilar. Shunda

shayx Mahmud ajoyib bir iltifot bilan “Kelgan mehmon ziyorat qilinishi kerak, agar himmat qilsak shahar amirini ham bu yerga olib kelamiz” dedi. Bir oz vaqtdan so‘ng shahar amiri o‘z mulozimlari bilan mehmon ziyoratiga keldi. Amir shaharning olim, sipohiy va ko‘zga ko‘ringan shaxslarini yig‘ib mehmon sharafiga ziyofat berdi hamda to‘n va safarini qulay davom ettirishi uchun yaxshi ot tortiq qildi [9, 337-b.].

Buxoroda Ibn Battuta Fathobod mavzesiga tushadi. “Bu yerda ulug‘ avliyolardan biri alloma zohid Sayfiddin Boxarziyning qabri bor. Mazkur shayxga nisbat berilgan zoviya juda katta bo‘lib, vaqflari behisob, undan musofir va ziyoratchilar uchun bepul taom ulashiladi. Shu zoviyaning shayxi Sayfiddin avlodlaridan biri bo‘lib, hoji Yahyo Boxarziydir. Shayx meni o‘z uyida qabul qildi, shaharning obro‘li kishilarini to‘plab ziyofat berdi, qorilar ajoyib ovozlari bilan tilovat qildilar, voiz esa mav‘iza qildi. Qo‘shiqchilar forsiy va turkiy tillarda ajoyib qo‘shiqlar ijro etdilar. Bu eng ajoyib kechalardan biri bo‘ldi” – deb qayd etadi Ibn Battuta [9, 339-b.].

Ibn Battuta Buxorodan chiqib, Naxshab orqali o‘sha davrdagi Movarounnahr mo‘g‘ul hukmdori Sulton Alouddin Tarmashirin o‘rdasiga borib yetadi. Bu yerda Ibn Battuta Sulton Tarmashirin va uning huzuridagi olim jome masjidining imomi Hisomiddin Yog‘iy munosbatlarini juda qiziqarli tasvirlaydi: “Bir kuni men peshin namozini ado etish uchun masjidga bordim, ammo sulton hali yo‘q edi. Uning mahramlaridan biri namoz o‘qiladigan gilamchani keltirib, odatda sulton ibodat qiladigan joyga yoyib qo‘ydi va Hisomiddin Yog‘iyga murojaat etdi: “Sultonimiz tahoratni tugallamaguniga qadar namozni boshlamay kutib turar ekansiz, u shunday deb buyurdi”. Imom o‘rnidan turib, dedi: “Namoz Xudo uchun o‘qiladimi yoki Tarmashirin uchunmi?” U muazzinga namozni boshlashni buyurdi. Sulton masjidga kirib kelganda ikki rakat namoz o‘qib bo‘lingan edi. Shunda u ikki rakat namozni qolgan joyidan ado etdi. U namozni odamlar o‘z poyabzalini yechib qoldirgan poygakda, masjid ostonasida o‘tirib o‘qidi, namozning o‘qilmay qolgan qismini ham tugatib o‘rnidan turdi, imomga yaqin kelib, u bilan qo‘l olishib so‘rashmoqchi bo‘lib jilmaydi. Men esa imomning yonginasida turar edim. So‘ngra sulton menga qarab shunday dedi: “Sen o‘z mamlakatingga qaytib borganingda hatto eng faqir fors ham turklar sultoniga qanday muomala qilishini aytib bergil”. Ushbu imom juma namozlarida ham Sultonga amri ma‘ruf qilar, zulmdan qaytarar, unga qattiq-qattiq gapiraverar edi. Sulton ham uning so‘zlarini jim eshitib, yig‘lab o‘tirar edi [9, 342-b.].

Arab sayyohi bu hikoya orqali Hisomiddin Yog‘iyning e‘tiqodni, shariatni pok saqlashdagi jasoratini ko‘rsatish barobarida sultonning mardligi, kamtarin va oliyjanobligini ham ta‘kidlamoqchi bo‘ladi. Sulton imomga g‘azab qilish, uni qatl etishi ham mumkin edi, lekin Tarmashirin ham javonmardlar kabi ish ko‘radi, haqgo‘y shayxga ozor bermaydi. Ushbu shayx, Ibn Batutaning yozishiga qaraganda, “sultondan hech bir sovg‘a olmasdi, hech qachon uning taomini tanovul etmasdi, u tuhfa qilgan kiyim-kechakni kiymasdi, u Allohning taqvodor bandasi

edi". Shunga qaramay, sulton Hisomiddin al-Yog'iyni hurmat qilgan, uning orqasida turib namoz o'qigan [16, 127-b.].

Tarmashirinning o'rdasidan chiqib Samarqandga yetib borgan Ibn Battuta Qusam ibn Abbos maqbarasi va undagi zoviyani tasvirlaydi. Zoviyada mehmon va ziyoratchilar yashaydigan musofirxona tashkil etilganini, u yerda musofirlar va xodimlar uchun nafaqa qilinishini qayd etadi [9, 347-b.].

Samarqanddan Nasaf orqali Termizga yetib kelgan Ibn Battuta Shayx Azizon zoviyasiga tushganini qayd etadi. Bu zoviyada ham kelgan-ketgan musofirlarga infoq qilinishini eslab o'tadi [9, 349-b.].

Jayhun daryosidan o'tib, Balxga kirib borgan ibn Battuta u yerdagi jome masjidi bilan bog'liq bir voqeani zikr qiladi: "Bir yili abbosiy xalifa Balx aholisining qandaydir ishidan norozi bo'lib, ularni jazolash maqsadida katta xiroj undirish uchun amirini yubordi. Amir Balxga yetib kelganida shahardagi ayollar bolalari bilan Balx voliysining xotini huzuriga kelib, o'z holatlaridan, bu jazo mashaqqatidan arz qildilar. Shunda ayol xiroj undirishga kelgan amirga o'zining qimmatbaho javohirlar bilan bezalgan ko'ylagini berib yubordi. Bu ko'ylakning bahosi undiriladigan xiroj miqdoridan ham ziyod ekan. Ayol amirga: "Sen bu ko'ylakni xalifaga olib bor, Balx aholisining ahvoli tang bo'lgani uchun ular nomidan sadaqa qildim" –debdi. Amir qimmatbaho ko'ylakni olib borib xalifa oldida yoyib qo'ydi va bo'lgan voqeani so'zlab berdi. Xalifa hijolat chekib: "Nahotki bir ayol bizdan ko'ra himmatliroq bo'lsa!?", deb, Balx aholisidan jazoni ko'tardi, ko'ylakni ayolga qaytarishga amr berdi va Balx aholisini bir yillik xirojdan ozod qildi. Amir Balxga qaytib kelib, xalifa huzurida bo'lgan gapni ayolga aytib berdi va ko'ylagini qaytardi. Ayol amirdan so'radi: "Bu ko'ylakka xalifaning ko'zi tushdimi?" Ha, dedi amir. Shunda ayol "Nomahramning ko'zi tushgan ko'ylakni aslo kiymasman". Ayol ko'ylakni sotishga buyurdi. Ushbu mablag'ga masjid, zoviya, uning ro'parasiga rabot qurildi. Rabot hamon obod bo'lib turibdi. Ko'ylak pulining ortgan uchdan bir qismini ayol masjid ustunlaridan birining ostiga ko'mishga buyurdi. Toki zaruriyat bo'lganda undan foydalanish oson bo'lsin, deb. Balxni egallagan Chingizxon bu voqeani eshitib, masjidning uchdan bir ustunlarini buzdirib, lekin baribir hech narsa topa olmadi" [9, 349-350-b.].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarda Markaziy Osiyo xalqlarining og'ir sharoitda ham javonmardlarga xos bo'lgan mehmondo'stlik, mardlik, iysor, musofirparvarlik kabi xususiyatlari davom etganini tasdiqlaydi. Bu xususiyat ayollarda ham o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'lganini Ibn Battuta bir necha aniq misollar orqali qayd etadi.

Ibn Battuta o'z asarining "Hirot shahri va uning sultoni" degan bobda xurosonlik sarbadorlarni tasvirlab o'tadi. Ularni iroqlik shuttor va mag'riblik suqurlar bilan barobar deydi. Ularni avval yo'lto'sarlik qilganlarini, o'zlari rofiziy ekanlarini qayd eta turib, halollikda ham maqtab qo'yadi: "Ularning (sarbadorlarning) qarorgohida dinor va dirhamlar tushib qolsa, egasi kelib olmaguncha hech kim teginmas edi" [9, 353-b.].

Muhokama

4. Amir Temur va Temuriylarning futuvtat tashkilotlariga munosabati.

Amir Temur davridagi futuvtat tashkiloti sifatida sarbadorlarni qayd etish mumkin.

Sarbadorlar harakati Xurosonda XIV asrning 30 yillarida mo'g'ul bosqinchilarining jabr-sitamlariga qarshi paydo bo'lgan harakatdir. "Sarbador" so'zi ham aynan ozodlik yo'lida "boshini dorga tikkan"lar degan ma'noni anglatib, shu yo'lida jonini fido qilish yo'lini tanlaganlarga nisbatan qo'llangan. Xurosonlik sarbadorlar poytaxti Sabzavor shahri bo'lgan mo'g'ullardan mustaqil davlat tashkil etishga muvaffaq bo'lganlar. Bu davlat hattoki 45 yil yashagan (1337-1381). Yaqin Xurosondagi bu harakat Movarounnahrda xususan, o'rta asrlarda bu mintaqaning eng isyonchi shaharlaridan bo'lgan Samarqand aholisiga ham kuch bergan edi. Natijada 1965 yil Samarqandda mo'g'ullarga qarshi sarbadorlar harakati avj oldi. Sarbadorlar Samarqand ahlini bostirib kelayotgan bosqinchilarga qarshi safarbar qila oldilar. Xalq ozodlik harakatiga sarbadorlar – Mavlonazoda Samarqandiy, Mavlono Xo'rdak va Abu Bakr Kalaviylar rahbarlik qildilar. Sarbadorlar boshchilik qilgan xalq qo'shini mo'g'ullarni yengib, ularni ketishga majbur qiladilar hamda shaharda o'z hukmronliklarini o'tkazadilar. 1466 yil bahorda Movarounnahr amirlari Amir Husayn va Amir Temur sarbadorlardan Samarqand shahrini olib qo'ydilar. Keyinchalik Amir Temur Xurosondagi sarbadorlar davlatiga ham barham beradi. Hozirgi kunda Samarqandlik sarbadorlar Samarqandda qanday davlat boshqaruvi faoliyatini amalga oshirganlari to'g'risida manbalar topilmagan [5, 362-375-b.]. Temuriylar davrida ham sarbadorlar mavzusi ko'p ham muhokama qilinmagan.

5. Temuriylar davri adabiyotida futuvtat. Alisher Navoiy asarlarida Axiy obrazi. Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvtatnoma" asari.

Temuriylar davri adabiyotida futuvtat tashkilot sifatida ochiq-oydin ifoda topmagan bo'lsa-da, uning g'oyalari ilg'or shoirlar asarlariga singgan edi. Navoiy bu masala borasida, ayniqsa, "Sab'ai sayyor" dostonida muhim fikrlar aytishga erishadi. "Sab'ai sayyor" "Xamsa"ning to'rtinchi dostoni bo'lib, u 1484 yili yozib tugallangan. Doston uchun Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan "Baxrom Go'r" afsonasi asos bo'lgan.

Alisher Navoiy "Sab'ai sayyor" dostoni hikoyatlari qahramonlarida futuvtat egalarining xislatlarini ko'rmoqchi bo'ladi va shu sababli ular inson sifatida komillikka yaqin turadi. Dostondagi "avvalgi iqlim yo'lidan keturgan musofirning fasona demagi" bobida keltirilgan Axiy haqidagi hikoyat barcha hikoyatlarning ma'no-mazmunini o'zida jamlagan hikoyatdir, ya'ni saxovat va iysorning eng oliy namunasi haqidadir. Bu hikoyatlar axiylikka xos bo'lgan barcha fazilatlar kuylanadi. Jumladan, Axiy otining o'zi ham futuvtatli kishi, do'st demakdir.

Futuvtat yo'li birinchi hikoyat qahramoni Axiy uchun hayot yo'li edi. U har bir ishini futuvtat ahlining qonun-qoidalari asosida bajaradi. Shunisi ahamiyatliki,

Navoiy qahramonlar nomlarini atashda ham ramziylikka e'tibor qaratgan. Shoir asardagi Axiy obrazi orqali aynan Kichik Osiyodagi futuvvatning go'zal namunasini ifoda etgan.

Hikoya quyidagicha: Hind mamlakati podshosi Jasratxonning aqlu husnda tengsiz o'g'li shahzoda Farrux tushida bir parivashni ko'rib, sevib qoladi. O'sha sanamga yetishish ishqida safarga chiqqan shahzoda Halab shahrida tushida ko'rgan mahvashni uchratib, hushidan ayriladi va taqdir taqozosi bilan birgina palosga o'ranib, og'ir ahvolda qolganida unga saxovati bilan nom qozongan Axiy yordam ko'rsatadi. U bilan suhbatda bo'lgan Axiy Farruxning zakovatiga qoyil qoladi va shahzodaning dardiga davo topishni chin dildan xohlaydi. Nihoyat Farruxning ishq tushgan go'zal o'z ayoli (turmush o'rtog'i) ekanini bilib oladi va jufti halolini taloq qilib, Farruxga nikohlab beradi:

Dedi fikr aylabon muruvvat ila,

Topti bu nuqtani futuvvat ila.

Suyukli yori deb o'ylagan bu ayol o'sha sohibi xonadonning xotini ekanini shahzoda yurtiga qaytayotganda – yo'lda bilib qoladi. U ham mardlikka mardlik qaytaradi: “omonat”ga xiyonat qilmaydi. Farrux Axiyning mardligidan hayratga tushadi, ayolni o'ziga singil kabi tutadi va do'stini izlaydi. Farrux o'z yurtiga qaytib va vafot etgan otasi o'rniga taxtga o'tiradi. Hayot taqozosi shunday bo'ladiki, yillar o'tib shu yaxshiliklarni Farrux Axiyga qaytaradi – Farrux singlim deya Axiyning o'z ayolini katta to'y bilan nikohlab beradi.

Alisher Navoiy “Sab'ai sayyor”dagi yuksak axloq mezonlarini namoyon etgan Axiy obrazini yaratishi ham bejiz emas. U aynan axiylarning eng yuksak ma'naviyati va o'zgani o'zidan afzal ko'rish tamoyilining eng oliy ifodasini Axiy obrazi orqali ifoda etadi. Axiy obrazida aynan kamdan-kam odamga nasib etadigan saxovat, olijanoblik, ahillik, muruvvat, o'zga kishi uchun jonini berishga ham tayyor turgan axiy-javonmard tasvirlangan.

Axiyning o'zi uchun aziz va sevimli bo'lgan xotinini taloq qilib do'stiga nikohlab berganini o'qigan, eshitgan odamlar uning bu xatti-harakatlarini tushunmaydi. Uning bu ishini aqldan tashqarida deb hisoblaydi. Ammo futuvvatning mohiyati ham ana shunda. Mohiyat narsa-buyum yoki insonlarga qarab o'zgarmaydi. Axiy bu yo'lni tutib, tabiiyki, o'zi ruhan eziladi, ammo bir insonni tushkunlikdan qutqarib, yangi hayot boshlashiga imkon yaratdi. Bunga javoban do'stining undan-da muruvvat ko'rsatishi “Sab'ai sayyor” hikoya xotimasini go'zallashtiradi:

Gar anga bu qadar muruvvat bor,

Bizda ham shammai futuvvat bor.

Bu ham Axiy saxovatining munosib baholanishi edi. “Shoir saxiylikni – muruvvat, axiylikni – futuvvat sanaydi”.

Umuman, Alisher Navoiy o'zining asarlarida, jumladan, “Sab'ai sayyor”da futuvvat ta'limotining qonun-qoidalarini o'zida mujassamlashtirgan qahramonlarni tasvirlashga harakat qilgan. Shoir tasvirlagan ijobiy qahramonlar tabiatida futuvvatli kishilarga xos bo'lgan ezguliklarni ko'rishimiz mumkin. Har

qanday holatda ham faqat yaxshilik qilish Navoiy qahramonlarining bosh maqsadidir.

“Sab’ ai sayyor”ning IX bobi Sulton Husayn Boyqaro madhiga bag‘ishlangan. Navoiy o‘zining do‘stini ta’riflashda futuvvat g‘oyalarining badiiy talqinidan keng foydalanadi. Uning naqadar oliyjanob va oliyhimmat ekanini aytib o‘tadi. Bu bobni o‘qiganda kitobxonda Alisher Navoiy Husayn Boyqaroda futuvvatli kishilarga xos barcha fazilatlarni ko‘rmoqchi bo‘lganligini payqash mumkin.

Alisher Navoiy *axiylilik* haqida maxsus hikoya yaratgani holda, o‘z vatani Xuroson va Movarounnahrda keng shuhrat qozongan va shahar hunarmandlarining katta qatlamini qamrab olgan – javonmardlikni chetlab o‘tganday tuyulsada, aslida shoir asarlarida “futuvvat”, “javonmard” atamaları komil insonlarga xos ijobiy xususiyatlarni tasvirlashda ko‘p tilga olinadi.

Alisher Navoiy, garchi javonmard nomi bilan maxsus hikoya va obraz yaratmagan bo‘lsa ham Farhod, Mas’ud, Sa’d, Farrux, Iskandar, Shopur, Muqbil singari haqiqiy javonmardlar timsolida o‘zining bu masalaga doir qarashlarini ifodalaydi. Alisher Navoiyning bu boradagi ehtiyotkorligi javonmardlar sifatida tilga olinadigan “sarbadorlar” harakati bilan temuriylar o‘rtasidagi salbiy munosabatga borib taqaladi. Navoiy asarlarini tahlil qilish asosida uning javonmardlarga nisbatan chuqur muhabbatini anglash mumkin. Zero u o‘z asarlarida javonmardlik mavzusini tashkilot sifatida emas, balki yuksak axloqiy meyorlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqqan.

Quyida Alisher Navoiy asarlarida “futuvvat” va “javonmardlik” so‘zlarining qo‘llanilishi taqdim etiladi:

BADOEUL BIDOYA

Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo‘q,
Futuvvat barcha qilmoqdur, demak yo‘q.

LAYLI VA MAJNUN

Payg‘ambar alayhis-salomga nisbatan asarning na’t bobida qo‘llangan.

Ey zoting nomai futuvvat.

Orqosida xotami nubuvvat,

Navfal Laylining otasiga Majnunning maqtovini keltiradi.

Mundoqmu bo‘lur muruvvat oxir,

Mardumlig‘ ila futuvvat oxir.

Majnunning o‘z otasiga ehtiromi tasvirlanadi.

Majnunki futuvvat ahli erdi,

Ehsonu muruvvat ahli erdi.

Navfal Majnun uchun chora vositasi sifatida o‘z qizini nikohlab berishga

qaror qiladi. Navfalning qizi boshqa insonni sevishini aytib, Majnunga aka-singil bo'lishni taklif qiladi:

Bu nav' muruvvat o'lsa sendin,
Izhor futuvvat o'lsa sendin.

LISONUT TAYR

Amirul-mo'minin Usmon Zunnurayn roziyallohu anhu sha'nida

Ul hayo koniki nurul-ayn edi,
O'ylakim aynayn zun-nurayn edi.

Sidq koniyu muruvvat maxzani,
Hilm bahriyu futuvvat ma'dani.

HAYRATUL ABROR

Nushirvonning hayosi haqida
Ayni hayo birla futuvvat anga,
Bermadi ul amrda quvvat anga.

SADDI ISKANDARIY

Payg'ambarga bag'ishlangan na't
Guvoh o'ldi toji futuvvat munga,
Dalil o'ldi muhri nubuvvat munga.

NAZMUL JAVOHIR³

Hazrat Alining hikmatlari jamlangan "Nasr ul-laoliy»dagi hikmatlarning turkiy nazmga solinishi:

242. La dina liman la muruvvata lahu (Muruvvatsizning dini yo'q)

Xar kimsaki, din ichinda quvvat yo'q anga,
Jazm aylaki, oyini futuvvat yo'q anga
Din ahli bila rasmi uxuvvat yo'q anga,
Ul kimsada yo'q dinki, muruvvat yo'q anga.

XAMSATUL MUTAHAYYIRIN

Navoiyning taklifi bilan Jomiy "Shavohid un-nubuvvat li taqviyati yaqini ahl al-futuvvat" kitobini yozadi. Bu mavzuda ham bir kitob ta'lif etish avvaldan

³ Alisher Navoiyning 268 ruboiydan iborat "Nazmul javohir" asarida hazrat Alining hikmatli so'zlari sharhlangan. Milodiy X asrda SHarif Roziy to'plagan Ali ibn Abu Tolibning hikmatli so'zlari "Nahjul balog'a" deb nomlanadi. XI asrda "Nahjul balog'a"ni yanada mukammallashtirgan olim Johiz (Amr ibn Bahr) asarni "Nasrul laoliy" (Qimmatbaho toshlarning sochilishi) deya nomlagan. Keyinchalik ushbu asarning ma'lum qismlarini Rashiddin Vatvot, Darvesh Ashraf Xiyoboniy fors tilida sharhlab, nazmga soladi. Alisher Navoiy ilhomlanib, "Nasrul laoliy" asarini turk tilida ruboiy janrida sharhlaydi va uni "Nazmul javohir" deb nomlaydi.

Jomiyning rejasida bo'lgan. Biroq shogirdning da'vati bilangina u bu ulug' ishga kirishgan. Ushbu asar Payg'ambar alayhis-salom siyratlariga bag'ishlangan.

Shu bilan birga Alisher Navoiy asrlarida "javonmardlik" so'zi ham ko'p qo'llanilgan.

FARXOD VA SHIRIN

Anga deb: «K-ey shioring kinu novard,
Qilurda qatl tig'ingdek javonmard.

Qiliching aylabon qonimg'a rangin,
Tiriklikdin yetur joning'a taskin.

DEVONI FONIY (Muqattaot)

<i>Asl forsiy</i>	<i>tarjima</i>
<p>Çavonmard az karam muflis nagardad, Saxiro az ato chin nest dar chehr. Ba poshidan chñ nuqs oyad ba daryo, Ba afshondan chñ kam gardad zari mehr?</p>	<p>Javonmard himmati tufayli kambag'al bo'lib qolmaydi, Saxiyning yuzidagi ajinlar lutfu ehson qilgani sababli paydo bo'lgan emas Sepgan bilan daryoning suvi ozayadimi? Sochgan bilan quyoshning nuri kamayadimi?</p>

Shuningdek, Navoiyning sufiylar hayot tarziga bag'ishlab mashhur "Nasoyim al-muhabbat min shamoim al-futuvvat" deb asar yozib, unga futuvvat nisbat beriladigan 770 valiyning ta'rifini keltirgan. Ushbu asrida muallif 105. Zahrun Mag'ribiy; 190. Muhammad ibn Homid Termiziy, 202. Ibrohim ibn Dovud Qassor; 302. Jahm Raqqiy; 340. Abu Abdulloh Muqriy; 378. Amir Aliy Abularni "javonmard" deb maqtagan.

XV asrning ikkinchi yarmida Alisher Navoiy atrofida to'plangan alloma, shoir va donishmandlar orasida mashhur va qomusiy talant egalaridan biri Voiz Koshifiydir (1442-1505). Koshifiy ham o'z asarlarida futuvvat-javonmardlik masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Xususan, "Futuvvatnomai sultoniy" Husayn Voiz Koshifiyning shu yo'nalishdagi maxsus asari hisoblanib, uni ta'lif etishda o'zidan oldin shu janrda ijod qilgan Qushayriyning "Risola", Me'moriy Bag'dodiy "Kitab al-futuvva", Abdurahmon Sulamiyning "Kitab al-futuvva", Hujviriyning "Kashf al-mahjub", Abdulloh Husayn Koshiyning "Tuhfat al-ixvon" asarlariga ergashgan. Shu bilan birga G'azzoliyning "Kimiyo saodat", Abu Said Abulxayrning "Asror at-tavhid", Kaykovusning "Qobusnoma" va boshqa asarlardan istifoda etgan. Asarda Koshifiy Abu Homid G'azzoliyning "Ihyo ulum ad-din" asaridan ham keng foydalanadi. Jumladan, mehmondo'stlik, taomlanish,

qo'shniçilik kabi fasllarni misol qilib keltirish mumkin. Shuningdek muallif Hujviriyning "Kashf al-mahjub" asaridan ham unumli foydalangan [15, 113-b].

O'z asarida Husayn Voiz Koshifiy futuvvatni tariqatning bir bo'lagi sifatida ko'radi. Unga ko'ra javonmard sufiylik axloqini o'zida mujassam qilgan, tasavvufiy g'oyalarni amaliy tatbiq qilgan kishidir. Shuning uchun ham asarda tasavvufga doir ko'p nazariy masalalar ham kitobda o'z aksini topgan. Asar futuvvatga doir fors tilidagi eng mukammal asarlardan hisoblanadi.

Asarda javonmardning shadd – ahdu vafo belbog'ini bog'lash marosimi, shadd va uning turlari, shadd bog'lashning Salmoni Forsiyga yetib boradigan silsilasi, javonmardlikka qabul qilish marosimidagi moddiy va ma'naviy unsurlar, xirqa kiyish odoblari, uning matolari va ranglari ma'nosi, kuloh va uning sallasiga doir masalalar, yetti a'zoni saqlash odoblari, takyaxonada yashash odoblari, suhbat, taom yeyish va suv ichish, kiyim kiyish, mehmondorchilik odoblari, kasb-kor va tijorat odobi, urush siloh-aslahalarini tutish qoidalari, qassoblarning o'z kasbiga oid o'gitlar o'rin olgan.

Koshifiyning "Anvori Suhayliy", "Risoi Hotamiya", "Axloqi Muhsiniy" nomli asarlarida ham javonmard kishilarning xislatlari tasvirlanadi. "Futuvvatnomai sultoniyy" asarida esa futuvvat tariqatning bir qismi sifatida javonmardlik udumlari, an'analari tasavvuf bilan uyg'un holda batafsil bayon qilinadi. Husayn Voiz Koshifiy futuvvatga doir 71 ta shartni ko'rsatgan. Ana shularning barchasi ikkita sifatda mujassam bo'ladi: saxovat va shijoat.

Aslida 12 bobdan iborat bo'lgan kitobning hozirda 7 bobigina saqlanib qolgan. Eronlik tadqiqotchilar Koshifiyning "Futuvvatnoma" asarida qadimiy e'tiqodlarga oid urf-odatlar mavjudligini ko'rsatib berishga harakat qiladilar⁴.

6. Buxoro oluftalari – mahalliy fatiylar.

Futuvvatning keyingi davrda, xususan XIX asrda Buxorodagi ko'rinishi – "oluftalar" haqida buxorolik mashhur yozuvchi Sadridin Ayniy (1878-1954) o'zining "Esdaliklar" kitobida zikr etadi.

Oluftalar – hunarmand, oddiy xizmatchi toifa bo'lib, sodda, ko'ngli ochiq, saxiy va mard bo'lganlari tasvirlanadi. O'zlari bilan ulfatchilik qiladigan kishining hurmatini joyiga qo'yib, ziyofat cho'zilib ketsa, uzoqroqda turadigan mehmonni birov xafa qilmasligi uchun uyigacha kuzatib qo'yadilar. Agar kim bilandir do'st tutinsalar, do'st uchun jonini fido qilishga tayyor edilar. Ulardan biriga kimdir nohaq qo'pollik qilsa, uni ayamay jazolar edilar. Ularni tashqi ko'rinishlaridan tanib olish mumkin edi: poshnali poyabzal, salla tekis o'ralib, uning pechi orqaga kalta tushirib qo'yadilar, belga qiyiqcha bog'lab, unga qinli ikkita pichoq osib yuradilar. Ko'ylaklarining oldi yopiq, chetlari kashta bilan tikilgan.

Oluftalar uyushmasining rahbari "mardu-mardon" deb yuritilar edi. U sariq echki terisidan ishlangan poshnasiz uchli kovush kiyar, kichik salla o'rab, afg'onchasiga pechini uzun tushirib qo'yar, qishin-yozin chakmon kiyib, qiyiqchasiga kichik qinli pichoq osib olgan edi.

⁴ Qarang: Muhammad Ja'far Mahjub. "Futuvvatnomai Sultoniyy" asari nashrining muqaddimasi. Elektron nashr (fors tilida).

Oluftalar uchun “sattor” degan qasam so‘zi juda muqaddas edi. Zero kimdir qattiq qasam ichmoqchi bo‘lsa: - Sattor men bu ishni amalga oshiraman!, der edi. Ularda ichilgan qasam har qanday holatda, jonni fidoqilib bo‘lsa ham bajarilar edi. Uzrli sabablarsiz amalga oshmagan qasam egasiga “nomard” degan nom berilgan.

Oluftalar payshanba kuni kechqurun o‘zlaridan bir kishining uyida to‘planishar, ziyofat qilishar, juma kuni esa shahar aylanishar yoki shahar tashqarisiga chiqishar edi.

Sadriddin Ayniy yashab tasvirlagan XIX asr Buxoro shahrida Buxoro oluftalari rahbari – mardi mardon – Morkush mavzesidan Maxdum Muhammadiy nomli 50 yoshlar chamasidagi tikuvchi-hunarmand bo‘lgan.

Sadriddin Ayniy Maxdum Muhammadiy bilan sodir bo‘lgan bir voqeani qayd qiladi. Bir kuni qosiblar sardori o‘z ukasiga bozor ichida hurmatsizlik ko‘rsatgan olufatlardan shikoyat qilib mardi mardonga murojaat qiladi.

Maxdum Muhammadiy unga ukasini yuborishini aytadi. Maxdum Muhammadiy Buxoro ko‘cha va rastalarini aylanib chiqadi, haqorat qilingan shaxs esa uning ortidan ergashib yuradi. Mardi mardon Chorxaras, Govkushon, Sisu, Sarrofon mavzelari, choyxonalar, ipchilar, to‘quvchilar rastalaridan o‘tdilar, undan mayizchilar va qovoq bozorlaridan o‘tib Xoja Muhammad Parron maqbarasiga chiqdilar. Chilangarlar rastasidan o‘tib, Siyoxgaron va Marodixon, yangi bozor, Muhammad G‘azzoliy va Dabbiyondan o‘tib G‘oziyon hovuzi oldiga qaytib keldi. Shu aylanib chiqishning o‘zidayoq Buxoro oluftalari o‘rtasida “mardu mardon”ning sayri ovoza bo‘ldi. Butun shahar kosiblar sardorining ukasi Maxdum Muhammadiy himosiga olinganini tushunib yetdi. Shundan so‘ng hech bir kimsa unga nisbatan tajovuzkorlik qilmadi [4].

Futuvvatning bunday mahalliylik alohida ko‘rinishi haqida boshqa mintaqalarda ma‘lumotlar uchramaydi.

Xulosa

7. O‘zbek urf-odatlarida javonmardlik namunalari.

Keyingi davr adabiyotlarida futuvvat g‘oyalari ta‘sirida hunarmandchilik va kasb-hunarga oid maxsus adabiyotlarning shakllanishi va aholi orasida keng tarqalishi kuzatiladi: dehqonnoma, chorvadornoma, sayyodnoma, merganlik risolasi, musavvirnoma va boshqa.

Bu asarlarda kasb hunar pirlari, kasbning paydo bo‘lish tarixi, kasb jarayonida o‘qiladigan duolari, o‘sha kasb shug‘ullangan payg‘ambarlar va avliyolar, kasbga doir savol-javoblardan tashkil topgan.

Masalan “Merganchilik” risolasida miltiq otish kimdan qolganligi, miltiqni qo‘lga olganda, bo‘yinga ilganda, kissani bog‘larda, nishonga olganda, yugurganda, piltani to‘qiganda va o‘q joylayotgan vaqtda qanaqa duolar o‘qilishi yozilgan. Bundan tashqari merganchilikning 12 ta sharti va 5 ta hukmi bayon qilingan. Miltiqning o‘ng va chap yonini ajrata olish, merganchilikni fazilatlariga doir rivoyatlar, to‘rtta haqiqat piri, to‘rtta mazhabboshilar, to‘rtta ma‘rifat va to‘rtta rukn pirlari kabi masalalar batafsil yoritilgan. Risola savol-javob uslubida yozilgan [14].

“Dehqonchilik” risolasi esa Allohga hamd, Payg‘ambar alayhis-salomga na’t bilan boshlangan. So‘ngra, silsilasi Odam alayhis-salomga borib yetadigan o‘n sakkizta pining nomlari sanab o‘tilgan. Shundan keyin qora mol va omochning qaerdan paydo bo‘lgani, qo‘sh qo‘shish, qo‘sh haydashdagi qoidalar, ekin ekish tartibi, ekinni sug‘orish qoidalari, shuningdek, ekin ekishda, sug‘orishda, qo‘sh qo‘shganda, yig‘im-terimda, g‘aram qilganda, xirmon qilganda o‘qiladigan duolar batafsil yoritib berilgan. Risola savol-javob uslubida yozilgan [23].

Ushbu adabiyotlar bevosita har bir kasb-hunarga oid an‘ana, odob va qoidalar shakllanishiga xizmat qilgan. Hozirgi kunda ham ba‘zi kasb-hunarlarda, ayniqsa milliy hunarmandchilik sohasida mazkur ko‘rsatmalarga qat‘iy amal qilib kelinadi.

Javonmardlik milliy an‘ana shaklida o‘zbeklarning urf-odatlariga singib ketgan. Mehmondo‘stlik, o‘zini kamtar tutish kabi yuksak fazilatlar bilan bir qatorda, yosh farzandlarga marosimlarda holva yedirish, belbog‘ boylash, “javonmard bo‘l” deb duo qilish o‘zbeklarning udumlaridan hisoblanadi. Shuningdek, hunarmandchilik pirlariga alohida e‘tibor ko‘rsatishva hozirgi kunda ham davom etib kelmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abul Alo Afifiy (2015). *Al-Malomatiya, as-sufiya va ahl al-futuvva*, Bayrut-Bag‘dod: Manshurot Jamal.
2. Abulqosim Qushayriy (1989). *Ar-Risala al-Qushayriyya*, Qohira: Dor ash-sha‘b.
3. Arat, Reşid (2006) *Edip Ahmet B. Mahmud Yükneci, Atebetu’l Hakayik*. Ankara: Türk Dil Kurumu.
4. Ayniy S (1953). *Esdaliklar*. [Povest], Toshkent: Uzdavnashr.
5. Bartold V. V (1964). *Narodnoe dvijenie v Samarkande v 1365 g.*, Soch., t. 2, ch. 2, M.
6. Bayram M (2018) . "Anadolu Ahiliğinin teşekkülünde' ki rolü açısından fütüvvet hareketi ve tarihi", *Selçuklu Medeniyeti Araştırmaları Dergisi*, S 1, s. 51-73.
7. Hakim Termiziy (1988). *Navodir al-usul*, Qohira: Dor ar-rayyon.
8. Ibrohimov N (1993). *Ibn Battuta va uning O‘rta Osiyoga sayohati*, Toshkent: Sharq bayozi, B. 5-8.
9. J.Juvaydiy (2011) *Ibn Battuta. Tuhfat an-nuzzor*, Bayrut: al-Maktaba al-asiyya.
10. Juyushiy I (1980). *Al-Hakim at-Termiziy dirosat li osorihi va afkorihi*, Qohira: Dor an-nahza al-Arabiyya.
11. Kalabodiy (1994). *Taarruf*, Qohira: Xonaji.
12. Komilov N (1996). *Tasavvuf. Birinchi kitob*, Toshkent: Yozuvchi.
13. Mahmudov, Qozoqboy (1972). *Ahmad Yugnakiy. Hibatul Haqoiq*, Toshkent.
14. *Merganchilik risolasi* (Muallifi noma‘lum). O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi qo‘lyozmalar fondi. Qo‘lyozma № 241/III.

15. Muhammad Ja'far Mahjub. *"Futuvvatnomai Sultoniy"* asari nashrining muqaddimasi. Elektron nashr (fors tilida).
16. Najmiddin, Komilov (1996). *Tasavvuf. Birinchi kitob*, Toshkent: Yozuvchi.
17. Neslihan, Başkan (2013). *Atebetü'l-Hakayik bağlamında ahlâk kavrami ve tip etiği*. Ankara: Eskişehir Osmangazi Üniversitesi.
18. Yakup, Karasoy (2003). "Ahi Kelimesi ve Türk Kültüründe Ahilik", *Türkiyat Araştırmaları Dergisi*, S 14, s 1-23.
19. Yusuf Xos Hojib (1971). *Qutadg'u bilig*, Toshkent: G'.G'ulom.
20. Yusuf Xos Hojib (1972). *Qutadg'u bilig*, Q.Karimov nashrga tayyorlagan. Toshkent: Fan, T.1., T3.
21. Sviri S (1999). *Hakim Tirmidhî and the Malâmatî Movement in Early Sufism*. The Heritage of Sufism vol .I, ed. L. Levisohn, Oxford: Oneworld Publications.
22. Neslihan, Başkan (2013). *Atebetü'l-Hakayik bağlamında ahlâk kavrami ve tip etiği*. Ankara: Eskişehir Osmangazi Üniversitesi.
23. *Dehqonchilik risolasi*. (Muallifi noma'lum). O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi qo'lyozmalar fondi. Qo'lyozma № 241/II.